**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

| **“TASDIQLAYMAN”** | **“KELISHILDI”** |
|---|---|
| | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| G.Sh.Rixsiyeva | |
| 2020 yil “28” 08 | 2020 yil “29” 08 |

Ro‘yxatga olindi: № BD-5210300
2020 yil “28” 08

# SIYOSATSHUNOSLIK

## FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| **Ta’lim sohasi:** | 210000 – Sotsiologiya va psixologiya |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 5210300 – Siyosatshunoslik |

**Toshkent-2020**

| | |
|---|---|
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sular:**<br>Madaminova D.I. - TDShU, "Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar" kafedrasi mudiri, s.f.n.<br>Biturayev U.B. - TDShU, "Sharq mamlakatlari siyosati va xalqaro munosabatlar" kafedrasi katta o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Jo'rayev N.Q. – O'zDJTU professori, siyosiy fanlar doktori (turdosh OTM).<br>Baxadirov M.M. – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti kafedra mudiri, s.f.n., dotsent (turdosh OTM). |



| Fan/modul kodi<br>USYO126 | | O'quv yili<br>2020-2021 | Semestr<br>1/2 | ECTS - Kreditlar<br>4-2 | |
|---|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4/2 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg'ulotlari (soat)** | | **Mustaqil ta'lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | **Siyosatshunoslik** | 90 | | 90 | 180 |

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga siyosatshunoslik fanidan asosiy ma'lumotlar majmuasi (siyosat, hokimiyat va u bilan bog'lik nazariy va amaliy bilimlar, O'zbekistondagi siyosiy jarayonlar yo'nalishlari va oid huquqiy asoslar) borasi ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, siyosiy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, siyosatshunoslik qonunlari va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-modul. Siyosatshunoslik I**

**1-mavzu. Siyosatshunoslikka kirish. Siyosatshunoslikning fan sifatida shakllanishi.**

"Siyosat" kategoriyasi va uning obyektiv mazmuni, Siyosat va axloq, Siyosatning obyekt va subyektlari, Siyosatshunoslik fani va uning siyosiy fanlar tizimida tutgan o'rni, Siyosatshunoslikning qonuniyatlari va kategoriyalari, O'zbekistonda siyosatshunoslik fanining rivojlanishi.

**2-mavzu. Siyosiy nazariyalar va qarashlar.**

Qadimgi Sharqda siyosiy, huquqiy fikrning paydo bo'lishi, qadimgi Yunoniston va Rimda siyosiy va huquqiy bilimlar rivoji, o'rta asrlarda Markaziy Osiyo vaYevropada shakllangan siyosiy ta'limotlar, Uyg'onish davri va Reformatsiyaning siyosiy g'oyalari, Siyosiy va huquqiy bilimlarning yangi davrdagi rivoji, XX asrdagi siyosiy ta'limotlar, Hozirgi zamon siyosatshunosligining asosiy oqimlari va yangi tamoyillari.

**3-mavzu.Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tarixi (2 s.)**

Islomgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda siyosiy-huquqiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi. Islom ta'limotining vujudga kelishi va O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda siyosiy-huquqiy bilimlar rivoji. Amir Temurning davlat to'g'risidagi qarashlari. XVIII-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda siyosiy ta'limotlar rivoji. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida

jadidchilik g‘oyalari.

**4-mavzu. Siyosiy jarayonlar (2 s.)**

Siyosiy jarayonlar tushunchasi va uning mohiyati. Siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Siyosiy jarayonlarning strukturasi. Siyosiy faoliyat va siyosiy jarayonlar. Siyosiy ishtirok.

**5-mavzu. Siyosiy tizim (2 s.)**

Siyosiy tizim tushunchasi va uning mohiyati, Siyosiy tizimning funksiyalari, Siyosiy tizimlarning faoliyat ko‘rsatish modellari, Siyosiy tizimlar tipologiyasi va sotsiodinamikasi.

**6-mavzu. Siyosiy hokimiyat (2 s.)**

Hokimiyat tushunchasi va uning mohiyati,Siyosiy hokimiyatning tuzilishi va ko‘rinishlari. Siyosiy rejimlar tipologiyasi, Siyosiy hokimiyatning legitimligi va turlari, Fuqarolik jamiyati va hokimiyat.

**7-mavzu. Siyosiy ong va jamoatchilik fikri (2 s.)**

Siyosiy ong, uning mohiyati va asosiy belgilari. Siyosiy ongning turli darajalari va shakllari. Jamoat fikri (public opinion) tushunchasi mohiyati. Ijtimoiy sinf, ta’lim, din, yosh, gender masalalari. Jamoat fikrini o‘rganishda ijtimoiy so‘rovlarning ahamiyati.

**8-mavzu. Siyosiy madaniyat va siyosiy ijtimoiylashuv (2 s.)**

Siyosiy madaniyat tushunchasi va uning mohiyati, siyosiy madaniyatning jamoat fikridan farqi. Siyosiy madaniyat tipologiyasi. Siyosiy submadaniyatlar. Siyosiy ijtimoiylashuvning mohiyati va vazifalari.

**9-mavzu. Davlat - siyosiy institut sifatida (2 s.)**

Millat va davlat tushunchalari farqi Davlatning vujudga kelishi. Davlatning paydo bo‘lishi to‘g‘risida turli nazariyalar, Jamiyat siyosiy tizimida davlatning o‘rni va roli, Davlatning mohiyati, funksiyalari va boshqarish organlari. Federal va unitar tizim. Markaz va perifereya qarama-qarshiligi. Davlat va iqtisodiyot. Huquq tushunchasi. Konstitusiya. Konstitsiyada hokimiyatning aks etishi. O‘zbekiston va AQSh konstitusiyalari qiyosiy tahlili

**10-mavzu. Ijtimoiy guruhlar siyosatning sub’ekti sifatida (2 s.)**

Siyosat sub’ekti tushunchasi. Ijtimoiy guruhlar va ularning siyosatdagi ishtiroki.Jamoat birlashmalari va NNTlar tushunchasi. O‘zbekistonda jamoat birlashmalari va NNTlarning rivojlanishi.

**11-mavzu. Siyosiy modernizatsiya (2 s.)**

Millat tushunchasi. Millatlararo munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Milliy munosabatlarning ziddiyatli tabiati. Milliy davlat tuzumining asosiy shakllari. O‘zbekistonda milliy siyosat.

**12-mavzu. Siyosiy kommunikatsiya (2 s.)**

Siyosiy kommunikatsiya tushunchasi va uning mohiyati. Siyosiy kommunikatsiyaning siyosiy jarayonlardagi o‘rni. Siyosiy kommunikatsiya vositalari tizimi. Elektron hukumat va uning mohiyati. O‘zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish jarayoni.

**13-mavzu.Siyosat va millatlararo hamda dinlararo munosabatlar**




javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.- 104 b.

7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b. Aliyev V., Ergashev I., Hoshimov T., Yuldashev O. Politologiya. (Darislik), -T.: TDIU, 2010
10. Idirov U.Yu. Politologiya. Mavzularini interfaol o‘rganish: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: ToshDShI, 2010.
11. Otamurodov S., Ergashev I., Akromov Sh., Qodirov A. Politologiya:o‘quv qo‘llanma. – T., 2002.
12. Odilqoriev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. –T.: O‘qituvchi, 2008.
13. Oblomuradov N., Kuchimov N. Siyosatshunoslik. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti:O‘quv qo‘llanma - T.: Soliq akademiyasi, 2008.
14. Qirg‘izboev M. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurt talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2013.
15. G‘ofurov S.M., Xaydarov A.A., To‘laganova N.O‘. Siyosatshunoslik asoslari: o‘quv qo‘llanma –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasining nashriyoti; Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006.
16. Jeltov V. V. Politologiya. Rostov-na-Donu, 2004.
17. Xeyvud E.Politologiya: uchebnik dlya studentov vuzov/ Per.s angl.pod.red.G.G.Vodolazova, V.Yu.Belskogo. –M.: Yunitidana, 2005.

**Axborot manbaalari**

18. **www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali.**
19. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.


7. Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202_0_ yil “_29_” _08_ dagi _4_ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202_0_ yil “_28_” _08_ dagi _452_ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

| | |
|---|---|
| | ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'rni to'g'risida; jamiyat hayotining siyosiy sohasi nimalardan iborat ekanligi, siyosat to'g'risidagi tasavvurlar rivojlanishi bosqichlari, siyosatni tushuntirishning zamonaviy modellari, siyosatning jamiyat boshqa sohalari bilan aloqalari tabiati to'g'risida; siyosiy hokimiyat tushunchasi, asosiy nazariyalari, shakllari, obyekti, subyekti, resurslari, legitimligi va ularning turli nazariy talqinlari to'g'risida; ijtimoiy qatlamlashuv, uning siyosatga ta'sir etish mexanizmlari, siyosiy aktorlar tizimi, aktorlar tavsifi va bu boradagi asosiy yondashuvlar to'g'risida; siyosatning bevosita va bilvosita sub'ektlari, ularning tuzilishi, mohiyati, tarkibi, asosiy funksiyalari va bu boradagi yetakchi nazariy yondashuvlar to'g'risida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;<br>• bilimlarni mustaqil to'ldirib borish; bilim olishda kompyuter texnikasi va ahborot tizimlaridan foydalanish; siyosiy fanga oid mumtoz asarlarini o'qish, ularni konspekt qilish, ulardagi ma'lumotlarni guruhlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***<br>• Siyosatshunoslik asosiy tushunchalari tizimini amalda qo'llashni; hokimiyat, uning shakllari, ko'rinishlari, qadriyatiy jihatlariga doir bilimlarni amalga tadbiq eta olishni; asosiy namoyandalar qarashlarini va ularning nazariy merosi asoslarini qo'llay olish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Roskin M.G., Cord R.L., Medeiros J.A., Jones W.S. Political Science: An Introduction. New Jersey: Pearson, 2013. – 350 p. (o'quv qo'llanma)<br>2. Идиров У.Ю. Политология: ўкув қўлланма. –Т.:ТошДШИ, 2013. – 154 б.<br>3. Идиров У.Ю. Политология мавзуларини интерфаол ўрганиш: ўкув қўлланма. –Т., 2010. –72 б.<br>4. Bito'rayev O'.B. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma –T., 2017. –344 b.<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>5. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi – T.: Sharq, 2019.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy |



Millat tushunchasi. Millatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy munosabatlarning ziddiyatli tabiati. Milliy davlat tuzumining asosiy shakllari. O'zbekistonda milliy siyosat.

**14-mavzu. Siyosiy konfliktlar (2 s.)**

Siyosiy konfliktlar, ularning mohiyati va kelib chiqish sabablari. Siyosiy konfliktning funksiyalari va tasnifi. Siyosiy konfliktni boshqarish va yechishning o'ziga xos xususiyatlari.

**2-modul. Siyosatshunoslik II**

**15-mavzu.Siyosiy mafkura (2 s.)**

Siyosiy mafkura tushunchasi va uning mohiyati. Liberalizm va konservatizm mafkuralari. So'l va millatchilik oqimdagi mafkuralar. Demokratik va ekologik mafkuralar

**16-mavzu Demokratiya nazariyasi (2 s.)**

Demokratiya, uning mohiyati va evolyusion rivojlanish bosqichlari, Demokratiyaning liberal-demokratik qadriyatlari va asosiy tamoyillari, Demokratik tizimlarning faoliyat ko'rsatish mexanizmi.

**17-mavzu. Saylov tizimlari (2 s.)**

Demokratik jamiyatda saylovlarning o'rni, Saylovlarning funksiyalari, erkin, demokratik saylovlarning asosiy tamoyillari, Saylov tizimlari va saylov jarayonining asosiy bosqichlari, O'zbekistonda saylov tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

**18-mavzu. Siyosiy partiyalar va siyosiy manfaatdor guruhlar (2 s.)**

Siyosiy partiya tushunchasi, uning kelib chiqishi va asosiy xususiyatlari, Siyosiy partiyalarning funksiyalari, Partiyalar va partiyaviy tizimlar tipologiyasi: bir partiyali tizim, dominant partiyaviy tizim, ikki partiyali tizim va ko'p partiyali tizim. O'zbekistonda shakllanayotgan partiyaviy tizimning o'ziga xos xusuiyatlari. Siyosiy manfaatdor guruhlar tushunchasi. Siyosiy manfaatdor guruhlar va siyosiy partiyalar farqi. Siyosiy manfaatdor guruhlar va hokimiyat. Siyosiy manfaatdor guruhlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Lobbizm.

**19-mavzu. Siyosiy elita va lider (4 s.)**

Siyosiy elita tushunchasi va uning tarkibi, Siyosiy elitalar paydo bo'lishining sabablari va ularning vazifalari, Siyosiy elita to'g'risidagi asosiy nazariyalar, Siyosiy lider va uning tipologiyasi.

**20-mavzu. Tashqi siyosat. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi (2s.)**

Xalqaro munosabatlar tushunchasi. Xalqaro munosabatlar ishtirokchilari. Tashqi siyosat tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi, O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari munosabatlari, O'zbekistonning RF, Yevropa Ittifoqi va AQSh bilan munosabatlari.

**III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**1-modul. Siyosatshunoslik I**

1. Siyosat va siyosatshunoslik mohoyati va o'zaro aloqadorligi.
2. Siyosiy nazariyalar va qarashlar: G'arb va Sharq qarashlar tahlili
3. Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tarixi
4. Siyosiy jarayonlar
5. Siyosiy tizim
6. Siyosiy hokimiyat
7. Siyosiy ong va jamoatchilik fikri
8. Siyosiy madaniyat va siyosiy ijtimoiylashuv
9. Davlat – siyosiy institut sifatida
10. Ijtimoiy guruhlar siyosatning subyekti sifatida
11. Siyosiy modernizatsiya
12. Siyosiy kommunikatsiya
13. Siyosat va millatlararo hamda dinlararo munosabatlar
14. Siyosiy konfliktlar

**2-modul. Siyosatshunoslik II**

15. Siyosiy mafkura
16. Demokratiya nazariyasi
17. Saylov tizimlari
18. Siyosiy partiyalar va siyosiy manfaatdor guruhlar
19. Siyosiy elita va lider
20. Tashqi siyosat. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

**Siyosatshunoslik I**

1. Siyosat ijtimoiy hodisa sifatida
2. Siyosat va kuch ishlatish
3. Hozirgi zamonda kuch ishlatmaslik siyosatining xususiyatlari
4. Islom kuch ishlatmaslik haqida
5. O'zbekiston Respublikasining ichki siyosati: ustuvorliklari va natijalari
6. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari
7. Hokimiyat ijtimoiy hodisa sifatida
8. Hokimiyat chegaralari
9. Hokimiyatning subyekti va obyekti, ularning funksiyalari
10. bo'linishi haqida
11. Hokimiyatning an'anaviy va oqilona–huquqiy legitimligi



12. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatimiz davlat hokimiyatining tizimi haqida
13. Jamoat birlashmalarining jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni.
14. O'zbekistonda jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy–huquqiy tartibga solinishi.
15. O'zbekistonda siyosiy madaniyat va siyosiy ong
16. "Yoshlar Ittifoqi" ijtimoiy harakati.
17. Siyosiy hayotda Xotin-qizlarning o'rni va roli.
18. Insonning siyosiy xuquqlari
19. Hozirgi O'zbekistonda shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi
20. O'zbekiston yoshlarining siyosiy ishtiroki.

**Siyosatshunoslik II**

21. Postkommunistik mamlakatlarida hokimiyatning legitimligi va samaradorligini oshirish muammolari
22. Liberalizm va neoliberalizm mafkurasi
23. Konservatizm va neokonservatizm mafkurasi
24. Demokratik tizimlarning faoliyat ko'rsatish mexanizmi
25. Demokratik davlatlar tasnifi
26. Siyosiy partiya va uning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni
27. Siyosiy partiyalar vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari
28. Hozirgi dunyoda siyosiy partiyalar evolyusiyasining asosiy yo'nalishlari
29. Zamonaviy ommaviy siyosiy partiyalar
30. "Harakatlar strategiyasi: 2017-2021 yillar"da tashqi siyosat masalasi
31. O'zbekistonda siyosiy partiyalarining turlari
32. O'zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatining taktikasi va usullari
33. Siyosiy yetakchilik tushunchasi
34. Siyosiy yetakchilikning zamonaviy konsepsiyalari
35. Vatanimizning taniqli siyosiy yetakchilari
36. Siyosiy yetakchilikning rasmiy va norasmiy shakllari
37. Siyosiy elitani tanlash tizimi
38. Siyosiy elitaning byurokratlashuvi
39. Prezident Sh.Mirziyoyev siyosiy yetakchilik va rahbarlik ma'suliyati to'g'risida
40. Siyosiy terrorizm va unga qarshi kurash uslublari
41. O'zbekiston yoshlarining siyosiy ishtiroki.
42. Siyosiy terrorizm va unga qarshi kurash uslublari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. **V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- siyosiy bilim va siyosiy fan aloqadorligi, siyosatshunoslikning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlar, siyosiy fan tarkibi, uning